

Ruxsat berish jarayoni elektronlashtirildi

Ruxsatnoma olish uchun ariza berish, ko'rib chiqish, qayta rasmiylashtirish, amal qilish muddatini uzaytirish, amal qilishini to'xtatib turish, ularni o'zgartirish, bekor qilish va tugatishning yagona tartibi belgilandi.

Qaror bilan **27 ta** ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarning pasportlari tasdiqlandi.

Endilikda barcha arizalar **elektron tarzda** "Litsenziya" axborot tizimi (*license.gov.uz*) orqali **dam olish va bayram kunlaridan qat'i nazar, har kuni 24 soat davomida** qabul qilinadi.

Bu bilan fuqarolarning davlat organlariga "borish" va "kutish" kabi ortiqcha ovoragarchiliklarga chek qo'yildi.

Ruxsatnomani olish uchun ariza vakolatli organga "**Litsenziya**" AT yoki **YIDXP** orqali taqdim etiladi.

Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berish yoki berishni rad etish to'g'risidagi qaror talabgorning shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

Ruxsatnoma berish haqidagi ariza **birinchi marta** ko'rish *jarayonida ruxsat berilishi uchun zarur hujjatlar to'liq bo'lmaganda ushbu arizani ko'rib chiqish rad qilinmasdan kamchiliklarni* bartaraf etish uchun talabgorga muddat berilishi belgilandi.

Talabgor ruxsat berish tartib-taomillari sohasidagi vakolatli organ qaroridan norozi bo'lsa faqat sudga murojaat qilish emas, nizoni sudgacha ko'rib chiqish tartibi belgilandi.

Endilikda ruxsat berish yoki ruxsat berishni rad etish to'g'risidagi qarorlarni respublika darajasida qabul qiluvchi vakolatli organlarda mavjud xodimlar orasidan 5 kishidan iborat shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha **Apellyatsiya kengashi** tashkil etiladi.

Apellyatsiya kengashi nizolarni tezkor ko'rib chiqib, qonuniy hal qilish imkoniyatini beradi. Lekin fuqarolar xohlasa apellyatsiya kengashiga murojaat qilmasdan to'g'ridan to'g'ri sudga ham murojaat qilishlari mumkin.

Mazkur qaror **2022-yil 1-martdan** kuchga kiradi.

Manba: 86-son qaror, 22.02.2022y.